



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib



Yirik
korxonalar




Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik subyektlari

Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **4012,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **4,9 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **510,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **110,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **3501,8** mlrd. so'mni (**6,7%** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **436,7** mlrd. so'mni (**31,8 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **4 012,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **4,9 %** ga kamaydi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida ayrim tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **87,3 %** va yirik korxonalar hissasiga **12,7 %** to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri **28,2 %** ulush bilan **1132,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Jizzax sh.
1 132,9

Baxmal
529,2

G'allaorol
290,9

Paxtakor
165,7


Mirzasho'l
106,5

Arnasoy
88,0

ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **1,0 %** ulush bilan **40,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, **3501,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **6,7%** ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **87,3 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,9 %), Arnasoy (99,2 %), Zafarobod (99,1 %), Yangiobod (98,6 %), G'allaorol (98,4 %), Zarbdor (98,1 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan viloyatning Baxmal tumanida (103,1 %), o'sish kuzatildi. Qolgan barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatili.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mln. so'm	2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	4011960,1	95,1	510204,4	110,2	3501755,7	93,3
Jizzax sh.	1132897,2	97,5	227429,2	103,5	905468,0	96,1
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	87999,5	88,1	687,9	105,1	87311,6	88,0
Baxmal	529182,4	103,1	233289,3	120,2	295893,1	92,7
G'allaorol	290950,6	89,0	4703,7	98,2	286246,9	88,8
Sharof Rashidov	628957,3	94,4	717,4	87,1	628239,9	94,4
Do'stlik	133175,1	90,3	3203,0	107,1	129972,1	89,9
Zomin	545305,0	94,2	16157,6	111,2	529147,4	93,7
Zarbdor	128685,9	90,4	2394,8	106,4	126291,1	90,1
Zafarobod	74751,2	93,8	704,7	101,5	74046,5	93,7
Mirzacho'l	106461,4	89,8	2268,0	108,9	104193,4	89,5
Paxtakor	165748,0	96,3	15411,7	87,6	150336,3	97,3
Forish	147156,6	91,9	2649,5	110,9	144507,1	91,6
Yangiobod	40689,9	84,8	587,6	133,7	40102,3	84,3

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **10,2 %** ga o'sdi va **510.2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **12,7%** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **3 501,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **6,7 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **87,3 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,9 %), Arnasoy (99,2 %), Zafarobod (99,1 %), Yangiobod (98,6), G'allaorol (98,4 %), Forish (98,2%) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Baxmal (44,1 %), Jizzax shahri (20,1 %), Paxtakor (9,3 %) va Zomin (3,0 %) tumanlarida kuzatildi.



JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020-yil yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 888,8** ming so'm (2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **6,9** % ga kamaydi), hududlar kesimida nisbatan Baxmal (**100,9** %), va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**6 353,9** ming so'm), Zomin (**3 319,0** ming so'm) va Baxmal (**3 377,0** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	2888,8	93,1
Jizzax sh.	6359,9	95,7
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	1913,0	87,0
Baxmal	3377,0	100,9
G'allaorol	1689,6	87,1
Sharof Rashidov	2835,7	91,7
Do'stlik	2027,0	88,6
Zomin	3319,0	92,1
Zarbdor	1489,4	88,0
Zafarobod	1495,0	92,1
Mirzacho'l	2051,3	87,8
Paxtakor	2221,8	94,5
Forish	1587,4	90,5
Yangiobod	1442,9	83,3

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **436,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **31,8 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **187,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **75,2%**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **248,8** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **63,7 %**) tashkil etdi.

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-iyul oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **187,9** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **248,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	436,7	68,2	187,9	75,2	248,8	63,7
Jizzax sh.	80,2	72,6	80,2	71,1	0	0
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	15,3	67,5	3,5	69,3	11,8	67,0
Baxmal	62,4	78,4	10,8	148,3	51,6	71,4
G'allaorol	47,8	59,4	18,7	59,0	29,2	59,7
Sharof Rashidov	56,3	58,2	0	0	56,3	58,2
Do'stlik	16,4	68,4	10,2	72,2	6,2	63,1
Zomin	68,6	64,2	32,3	79,1	36,3	55,0
Zarbdor	23,7	72,2	3,8	72,8	19,9	72,0
Zafarobod	0	0	0	0	0	0
Mirzacho'l	12,0	61,8	4,9	85,2	7,1	51,9
Paxtakor	24,3	103,3	9,5	83,8	14,8	121,6
Forish	20,9	67,2	13,2	92,4	7,7	45,9
Yahgiobod	8,8	68,8	0,9	58,9	7,9	70,1

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



2,6
mlrd. so'm

Tuzlamalar



74,4
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



6,1
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

30,5
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



12,7
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari

5,9
mlrd. so'm



Tuxum

24,4
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

6,7
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

5,5
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

5,0
mlrd. so'm



Ziravorlar

14,1
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2020-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **187,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**74,4** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **248,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **183,8** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **58,8** mlrd. so'mni, otlar **4,9** mlrd. so'mni, parrandalar **1,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020-yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,3 %** ni tashkil etib, **50,6 mlrd. so‘mga** yetdi va 2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **35,9 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **95,7 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mln. so‘m	2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	50617,4	64,1	50617,4	64,1
Jizzax sh.	25794,9	62,7	25794,9	62,7
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	335,2	71,0	335,2	71,0
Baxmal	919,6	70,2	919,6	70,2
G‘allaorol	3137,2	64,3	3137,2	64,3
Sh.Rashidov	8607,3	64,8	8607,3	64,8
Do‘stlik	1661,6	65,5	1661,6	65,5
Zomin	3490,0	64,7	3490,0	64,7
Zarbdor	1364,1	68,1	1364,1	68,1
Zafarobod	456,9	67,4	456,9	67,4
Mirzacho‘l	1725,2	67,8	1725,2	67,8
Paxtakor	1487,2	67,4	1487,2	67,4
Forish	1366,3	64,0	1366,3	64,0
Yangiobod	271,9	69,0	271,9	69,0

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 070,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **32,2** % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **232,6** mlrd. so'mni (**67,9** % ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **837,7** mlrd. so'mni (**2,0** % ga kamaydi) tashkil etdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar


Mikrofirma

Kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega yirik korxonalar Yangiobod (144,3 %) va Forish (115,8 %), tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o‘zgarish sur‘atlari Zomin (96,9 %), Yangabod (98,6 %), Forish (98,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o‘shish sur‘atlari, foizda




	Jami, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1070,3	67,8	232,6	32,1	837,7	98,0
Jizzax sh.	578,6	63,9	106,6	25,2	472,0	98,1
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	10,1	34,7	8,1	30,0	2,0	98,5
Baxmal	50,7	91,9	31,7	88,6	19,0	97,9
G‘allaorol	26,6	93,2	0,7	32,9	25,9	97,9
Sh.Rashidov	77,7	75,4	10,2	29,8	67,5	97,9
Do‘stlik	53,3	63,1	10,6	25,9	42,7	98,1
Zomin	114,5	96,9	4,4	75,4	110,1	97,6
Zarbdor	36,0	64,1	21,8	52,4	14,2	97,6
Zafarobod	20,0	62,3	12,3	50,8	7,7	98,6
Mirzacho‘l	16,4	34,3	13,6	30,3	2,8	97,2
Paxtakor	22,2	40,6	12,2	27,5	10,0	98,1
Forish	58,6	98,2	0,2	115,8	58,4	97,7
Yangiobod	5,6	98,6	0,2	144,3	5,4	98,1

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, **837,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan (**2,0 %**) ga kamaydi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa (**78,3 %**) ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Forish (99,6 %), Yangiobod (97,0 %), G'allaorol (97,4 %), Zomin (96,2 %), Sharof Rashidov (86,9 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Mirzacho'l (17,0 %), Arnasoy (19,4 %) tumanlariiga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:72-221-51-26